

chiqindilarni kamaytirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish risklarni sezilarli darajada kamaytiradi, texnologik modernizatsiya va ekologik menejment tizimlarining joriy etilishi sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, ularni xalqaro ekologik standartlarga moslashtirish imkonini beradi. Xulosadan kelib chiqib, berilgan tavsiyalar:

- sanoat korxonalarida yashil sertifikatlash tizimini joriy etish.
- innovatsion texnologiyalarni joriy qilish uchun davlat-xususiy sheriklik dasturlarini kengaytirish.
- ekologik xavflarni monitoring qilish uchun raqamli tahlil vositalaridan foydalanish.
- xodimlar malakasini oshirish bo'yicha doimiy trening dasturlarini tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2012). Green growth and the future of industrial production. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/9789264178962-en>
2. Porter, M. E., & van der Linde, C. (1995). Toward a new conception of the environment-competitiveness relationship. *Journal of Economic Perspectives*, 9(4), 97–118. <https://doi.org/10.1257/jep.9.4.97>
3. Khamidov, B. (2021). Yashil iqtisodiyot asosida sanoat rivojlanishini baholash. *TDIU Ilmiy jurnali*, 4(2), 45–52.
4. Uzbekistan Ministry of Economy and Finance. (2023). National Strategy for Transition to a Green Economy in Uzbekistan until 2030. Tashkent.
5. Kuznetsov, S., & Klimenko, V. (2020). Green innovations in industrial sectors: A tool to reduce production risks. *Journal of Cleaner Production*, 258, 120-138. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2020.120138>
6. Zaynutdinov, R. (2022). Yashil iqtisodiyot sharoitida korxonalarda risklarni boshqarishning zamonaviy usullari. *O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali*, 6(3), 35–41.
7. World Bank. (2022). Uzbekistan: Pathways to a green and resilient economy. World Bank Group. <https://www.worldbank.org>
8. International Finance Corporation (IFC). (2019). Green industrial policy: Concept, policies, country experiences. IFC Publications. <https://www.ifc.org>
9. Tan, A. R., Matzen, D., McAloone, T. C., & Evans, S. (2010). Strategies for designing and developing services for manufacturing firms. *CIRP Journal of Manufacturing Science and Technology*, 3(2), 90–97. <https://doi.org/10.1016/j.cirpj.2010.12.00>

ADABIY TURIZMNING TA'LIM-TARBIYAGA TA'SIRI (QO'QON VA XORAZM ADABIY MUHITI MISOLIDA)

Raimova Hilola Ma'murjon qizi

FarDU 3-bosqich doktoronati

hilolaraimova1993@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Adabiy turizm va uning yoshlar tarbiyasiga ta'siri masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, Qo'qon xonlarining abadiy Makoni, u yerdagi maqbaralar holati va ziyorati masalasidagi ayrim mulohazalar va takliflar keltirib o'tilgan. Qo'qon shahrida adabiy turizmni rivojlantirish va ularning istiqbollari haqida ayrim taklif va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, adabiy turizm, Qo'qon adabiy muhiti, Umarxon Amiriy, "Dahmayi Shohon", "Modarixon" maqbarasi, Muqimiy uy-muzeyi, Hamza uy-muzeyi, Muhammad rahimxon madrasasi, Qiyot qishlog'i, Avaz O'tar uy-muzeyi, Amiriy, majmua, gumbaz.

Kirish: Bugungi kunda dunyoda turizmning rivojlanayotgan shakllaridan biri adabiy turizm deb nomlanadi. Turizmning ushbu tarmog'ini yangi vujudga kelgan hodisa deb aytilish

mumkin emas. Prezidentimiz yangi turizm yo'nalishlarini yaratish, turizmning zamonaviy turlarini rivojlantirish, ularning jozibadorligini oshirish [1,173] ni Yangi O'zbekistonni barpo etishda amalga oshirish lozim bo'lgan strategik vazifa sifatida belgilab bergan edilar.

O'tgan davrlarda ham boshqa davlatlarga, ijodkorlar yashagan shaharlarga tashrif bo'lib turgan, biroq bu soha u qadar rivojlanmagan. Birgina jadidlar misolida shuni aytish mumkinki, ular ham boshqa hududlarga sayohat qilish inson tafakkurini o'stirishi va dunyoqarashini kengaytirishini aytib o'tganlar. O'zlari esa bu borada namuna bo'lganlar. Tarbiya, albatta, tafakkur va dunyoqarash bilan bog'liq jarayondir. O'tmishda alohida xonlik hisoblangan Qo'qon shahrining o'zida ham qator diqqatga sazovor joylar va muhim qimmatli manzilgohlar joylashgan. Qo'qon shahri azaldan ilm-fan, adabiyot va madaniyat markazi sifatida bo'y ko'rsatgan. Bu uning qadimda Buyuk ipak yo'li ustida joylashganligi bilan ham bog'liqdir. U yerda hukm surgan madaniy va adabiy muhit shahar vujudga kelgan davrlardan buyon mavjud hamda asrlar osha rivojlanib kelmoqda. Ayni jihati bilan bu qadimiy shahar ko'plab sayyohlarni bugungi kunda ham o'ziga jalb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son [Farmoniga](#) ilova tarzida 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Ana shu konsepsiyaning bu yilga qaratilgan rejalari ham turizm sohasida ulkan imkoniyatlarni ochib bermoqda.

Qo'qon adabiy muhiti, uning yuzaga kelish omillari, muhit vakillarining hayot yo'li va ijodi butun turkiy xaqqlar uchun, balki xorijiy adabiyot ixlosmandlari uchun ham e'tiborga molik masalalarga aylanib ulgurgan. Bu o'z navbatida adabiy turizmning yuzaga kelishi va rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Adabiyot ko'plab ma'rifat va tarbiya vositalari sifatida xizmat qiladi. Sayyohlar adabiy joylarni ziyorat qilgach, uning madaniyati, tarixi va ma'rifati haqida yangibilim va ko'nikmalarga ega bo'lishadi. Bu jarayon yangi avlodi uchun ta'lim va tarbiya manbai bo'lib xizmat qiladi, ularga ijodiy fikrlash va madaniy qiziqishlarni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Asosiy qism: Adabiy turizm turizmning bir tarmog'i hisoblanib, bugungi kunda yangi rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Bu adabiyot va turizm sohasining umumlashgan ko'rinishi hisoblanib, unda sayohatlar adabiyot bilan uyg'un bog'langan holda olib boriladi. Turizm nafaqat dam olish yoki sayohat qilish vositasi, balki yoshlarni tarbiyalashda samarali vosita sifatida ham xizmat qiladi.[3,117] Bu faoliyat, yoshlarning shaxsiy rivojlanishini, madaniyatlararo aloqalarining mustahkamlanishini, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishni va jismoniy salomatlikning yaxshilanishini ta'minlaydi. Respublikamizning ko'pchilik hududlarida adabiy turizmni rivojlantirish yechimini kutayotgan muammolardan hisoblanadi. Adabiy turizm davlatga, jamiyatga iqtisodiy foyda keltirish bilan birga ma'naviy naf ham keltiradi. Uning iqtisodiy foydasidan ko'ra ma'naviy foydasi ko'p va samaralidir. Adabiy turizm yosh avlodni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, asriy qadriyatlar va an'analarni ulug'lashga, o'tmish ajdodlarga nisbatan hurmat va cheksiz faxr tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi. Turizmning yoshlar tarbiyasiga ta'sirini masalasini samarali amalga oshirish uchun metodik yondashuvlar va didaktik tamoyillarni to'g'ri tanlash zarur. Pedagogik metodlarni ishlab chiqishda turizmning tarbiyaviy jihatlari alohida e'tiborga olinishi lozim. Yoshlar uchun turizmni didaktik tamoyil asosida tashkil etish, ularning nafaqat dam olish, balki bilim olish, ko'nikmalarini oshirish va yangi tajribalarni egallashga yo'naltirilgan faoliyatga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, turizmga oid o'quv dasturlarini yaratish va yoshlarni sayohat qilishda qo'llaniladigan o'quv materiallarini yangilash muhimdir. Turizmning yoshlar tarbiyasiga ta'siri har bir mamlakat va hududda turlicha bo'lishi mumkin. Shuning uchun, har bir geografik hududning o'ziga xos madaniy va ijtimoiy sharoitlari turizmni yoshlar tarbiyasida qo'llashning samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, turizmni yoshlarni tarbiyalashda qo'llash bo'yicha universal yondashuvlar ishlab chiqilsa-da, ular har bir mintaqaning an'anaviy qadriyatlari va ehtiyojlariga moslashtirilishi zarur. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagogik va metodik yondashuvlar to'g'ri qo'llanilishi, xavfsizlikni ta'minlash, va barcha yoshlar uchun teng imkoniyatlar yaratish kerak. Turizm faoliyati yoshlar tarbiyasida samarali vosita sifatida namoyon bo'lib, ularning axloqiy, madaniy, ijtimoiy va

jismoniy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Turizm orqali yoshlar yangi bilimlarni o'zlashtirib, boshqa madaniyatlar bilan tanishadilar, bu esa ularning global dunyoqarashini kengaytiradi.

Umuman olganda, turizm yoshlarni tarbiyalashda samarali vosita sifatida foydalanilishi mumkin, agar u pedagogik va didaktik tamoyillar asosida tashkil etilsa, xavfsizligi ta'minlansa va barcha yoshlar uchun teng imkoniyatlar yaratishga yo'naltirilsa, albatta.

Adabiy turizmning tarbiyaga ta'siri masalasini turlicha izohlash mumkin. Bu jarayonni jadvalda ko'rsatib o'tamiz:

№	Adabiy turizm ko'rinishlari	Natijasi	Izoh
1.	Shoir va yozuvchilarning tug'ilib o'sgan yerlarini ziyorat qilish	Bu orqali ijodkorlarning bolaligi, yoshlik xotiralari bilan yaqindan tanishish imkoi yuzaga keladi.	
2.	Asarlarida tasvirlangan toponimlarni izlab topish	Yozuvchi ijodi va qahramonlariga qiziqish ortadi. Asar voqealarini yaqindan anglay oladi.	
3.	Maqbaralarni ziyorat qilish (agar olamdan o'tgan bo'lsa)	Ijodkorga yoshlarning shaxs sifatida hurmati ortadi, shuningdek, ajdodlaridan faxr va iftixor tuyg'ulari shakllanadi.	

Sharq dunyosida oilada farzand tarbiyasiga ayricha e'tibor bilan qarab kelingan. Musulmon sharqida ajdodlar ruhi va qabriga hurmat ko'rsatish azaldan mavjud an'analardan hisoblanadi. Shu ma'noda Qo'qon xonlarining abadiy qo'nim topgan manzili hisoblanmish "Dahmayi Shohon" majmuasi ham milliy va xalqaro turizmni rivojlantirish uchun arziqli joylardan hisoblanadi. Adabiy turizmning jadvalda ko'rsatganimiz uchinchi turi sifatida bu majmua bugungi kunda insonlarda faxr va iftixor tuyg'ularini shakllantiradi. Qo'qon xonlarining, xususan Umarxon Amiriyning olib borgan ishlari, qilgan obodonchiliklari, san'at va adabiyotga ko'rsatgan xizmatlari Amiriyning ne chog'li yurt uchun jon kuydirganidan dalolatdir. Lekin, ming afsuski, bugun Amiriyni yoshlarimiz u qadar yaxshi tanimaydilar. Bunda, avvalo, ota-onalar va maktabda o'qituvchilar birgalikda harakat qilib, ajdodlar bilan o'quvchilarni yaqindan tanishtirish va hatto ayrim darslarni ekskursiya sifatida tashkillab, ular qabrlarini ziyorat qilishga olib borishlari lozim. Bunda bir vaqtning o'zida ham ajdodlarga hurmat, ular hayotidan ibrat olish va xizmatlaridan faxrlanish tuyg'ulari shakllanadi.

Birgina Qo'qon shahrining o'zida XVII-XVIII asrlarda ellikka yaqin madrasalar faoliyat olib borgan. Bu shahrimizning azaldan ilm- fan va madaniyat markazi bo'lganligidan dalolat beradi. Mana shu madrasalarning qanchasi bugun huvillab yotibdi, yoki yuzlab ijodkorlarga beshik bo'lgan bu azim shaharda qanchadan qancha ijodkorlarning yashagan uylari bugun muzeylarga aylantirilgan. Lekin, ming afsuski, ushbu muzeylarni bolalargina emas, hatto o'qituvchilarning o'zi ham yaxshi bilishmaydi. Bugungi internet asrida o'qituvchilar, ayniqsa adabiyot fani mutaxasislari

har qachongidan ham hushyor va sergak tortib, o'sib kelayotgan yosh avlodni munosib ajdodlarga munosib tarzda tarbiyalash yo'lidani bormoqlari darkor. Maktab darsliklaridan o'rin olgan Muqimiy, Hamza, Nodira, Zavqiy, Furqat kabi ijodkorlarning, yoki o'rta maxsus va oliy ta'lim dasturlariga kiritilgan Qo'qon adabiy muhiti asoschisi Amiriy, Haziniy; Xorazm adabiy muhitining yirik vakillari Muhammad Rahimxon Feruz, Ogahiy, Munis, Avaz O'tar kabi ijodkorlarning mashaqqatli hayot yo'li va sermazmun ijodi bilan tanishtirishning eng samarali usullaridan biri bu, albatta, ularning uy muzeylari va maqbaralari ziyoratlariga o'quvchilarni olib borishdir. Quyida ana shunday maskanlar haqida qisacha ma'lumot berib o'tamiz:

Dahmai Shohon" hukmdorlar maqbarasi - bu Qo'qon hukmdorlari Norbo'tabiy va uning avlodlari dafn etilgan majmuadir. 1822-yili, Umarxon o'limidan keyin qurilishni uning xotini o'z davrining mashhur shoirasi Nodirabegim davom ettirgan. Qurilish 1825 yil oxirlarida tugatilgan. Qabrning kirish eshiklari arab tilida Qur'on suralari va Umarxonning she'rlari namunalari yog'och o'ymakorligi bilan bezatilgan. Maqbaraning to'g'ri shakllari va uning past joylashgan gumbazi unga jiddiy ko'rinish beradi. Maqbara eshigi o'yma o'simliksimon naqsh va arabiy yozuvlar bilan uyg'unlashtirilib nafis bezatilgan. Maqbara gumbazli, ichki devorlaridagi darchalarning biridan tomga, ikkinchisidan masjidga o'tilgan. Uchinchisi esa ochiq turgan. Ichki qismidagi katta ravoqlar bilan darcha ravoqlarining oraliqlaridagi g'ishtlar tik, gajaklar esa to'lqinsimon qilib terilgan. Maqbara yonida ayvonli masjid ikki ustunli bo'lib, uning to'sinli shifti 4 katakka bo'lingan, bo'yama naqsh bilan bezatilgan. Daxmai Shohonda xonning onasiga atab qurilgan Modarixon maqbarasi yaxshi saqlangan. Maqbaraning chiroyiga ikkita o'ymakor ishlangan eshiklar yanada chiroy qo'shmoqda. Bularning biri peshtoqda, ikkinchisi machitga kirishda joylashgan. Majmua 3 qismdan iborat: gumbazli xona peshtoqi bilan, ikki ustunli ayvonli machit va oilaviy qabristondan iborat. Dahmai Shohon majmuasi panjara bilan o'ralgan, uning o'rtasida qabrlar hamda Umarxonning qabri ustidagi marmar tosh joylashgan. Umarxon maqbarasi tashqi ko'rinishi juda maftunkor qilib ishlangan. Maqbaradan uncha uzoq bo'lmagan joyda oq marmar va bronzadan yasalgan yodgorlikni ko'rish mumkin. U taqdiri juda ayanchli bo'lgan Nodirabegimning o'zi sharafiga qurilgan. Uning qoldiqlari Modarixon maqbarasida ham tinchlik topdi va keyinchalik bu qabr xon oilasining barcha ayollari dafn etilgan joyga aylandi. [4, <https://otpusk.uz/uz/uzbekistan/sights/kokand>]. Bugungi kunda mana shu xonlarning abadiy makonlarini ham qayta rekonstruksiya qilish va u yerlarga mahalliy hamda chet ellik qiziquvchilarni jalb etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Shahrimizdagi mana shunday qadamjoldardan biri Muqimiy hujra-muzeyi bo'lib, u Sohibzoda Hazrat madrasasida joylashgan, ushbu maskan [Qo'qondagi muhim me'moriy yodgorlik](#)lardan biridir. Madrasa 1827-1860-yillarda o'zbek Minglar sulolasi davrida xalq orasida Sohibzoda Hazratning nomini olgan atoqli olim va davlat arbobi Miyon Fazliy Ahadning iltimosiga binoan barpo etilgan. Mana shu madrasaning bitta xonasida Muqimiy istiqomat qilgan va keyinchalik u yashagan xonalaui- muzeyga aylantirilgan. Shuningdek, Qo'qon shahrining Shayxon qabristoni darvozasidan kirilganda chap tomonda shahrimizda yetishib chiqqan davlar arboblari va ijodkorlarning ramziy qabrlari bir yerga jamlangan. Bularning ichida Muqimiy qabri ham bor. Bu yerlarni ham ta'mirlashga ehtiyoj bor. Qabrlar ta'mirlanib, katta majmuaga aylantirilsa, respublikamiz yoshlari, adabiyot ixlosmandlari uchun ham ziyoratgoh maskanga aylanar edi.

Qo'qon shahrida Xamza Hakimzoda Niyoziyning ham uy muzeyi tashkil etilgan bo'lib, u 1959-yilda shoirning o'z uyida ochilgan. Ushbu muzey bugungi kunda shaharning muhim diqqatga sazovor joyiga aylangan. Bir asrlik tut va tokzor barpo etilgan ozoda hovli, erkak va ayollar uchun alohida qilib ishlangan turar-joy binosi mehmonni o'zbek oilasining hayoti va turmush tarzi bilan tanishtiradi. Muzey ekspozitsiyasi shahardagi taniqli tabib shifokori Xamzaning otasi xonadonidan, Xamzaning o'zi kabinetidan - bu yerda uning fortepianosini, o'zbek cholg'u asboblari, kitob va jurnallardan iborat. Uning yonida shoirning onasi va Xamza vafotidan keyin o'g'lini tarbiyalagan singlisining xonasi joylashgan.

Biz yuqorida adabiyot darslarini tashkil etishda yangicha yondashuv sifatida ziyoratlar usulini taklif qilgan edik. Mana shunday madrasa, maqbara va uy muzeylari Xorazm ijodkorlari nomiga ham barpo etilgan. Jumladan, Muhammad Rahimxon II Feruz madrasasi 1871-1876 yillarda Xorazm xoni Muhammad Rahimxon II buyrug'i bilan qurilgan. Xon o'z davrining ma'rifatli va o'qimishli Xiva hukmdorlaridan biri sifatida tanilgan. U juda ko'p obodonlashtirish ishlarini olib boradi, ko'plab siyosiy va iqtisodiy, ta'lim islohotlarini amalga oshiradi. Yangi o'qitish usullariga ega bir nechta yangi maktab ochiladi. U yerda talabalar nafaqat an'anaviy diniy fanlarni, balki matematika, adabiyot, astronomiya, geografiya kabi dunyoviy fanlarni ham o'rganadi. Madrasa hajmi jihatidan boshqa ta'lim muassasalari orasida ajralib turadi. O'quv qismidan tashqari, uning ikkita qishki va yozgi masjidi, 70 dan ortiq yashash joylari ham mavjud edi. Muhammad Rahimxon II bino ichida qulay sinf xonalarini tashkil qilib, kutubxonani kerakli qimmatli qo'lyozmalar bilan ham ta'minlaydi. [5,<https://otpusk.uz/uz/uzbekistan/sights/khiva>]

Xorazm adabiy muhitining Munis va Ogahiy kabi vakillarisiz ushbu adabiy muhitni tasavvur etib bo'lmaydi. O'tgan davr mobaynida Prezidentimiz tashabbusi bilan Ogahiy uy-muzeyi tashkil etildi. Mana shu ishlarning davomi sifatida Qiyot qishlog'ida joylashgan Munis va Ogahiy larning maqbaralarida ham ta'mirlash ishlarini olib borish zarur.

Xorazmdagi muhim maskanlardan yana biri Avaz o'tar uy-muzeyi hisoblanadi. Muzey Avaz tavalludining 100 yilligi munosabati bilan Ichan qal'ada u yashagan uy o'rnida qurilgan binoda 1984-yilda ochilgan. Muzey oldida shoirga haykal o'rnatilgan. Ushbu muzey 4 xonadan iborat: 1-xonaga Avaz asarlaridan namunalar, suratlari, albomlar, ustoz va shogirdlarning kitoblari va boshqa qo'yilgan; 2- xonani shoirning otasi Polvonniyozning kiyim-boshlari, sandiq, ko'rpato'shak, o'choq, chiroq, xurjun, miltiq va boshqa egallagan; 3- xona Avaz ijodxonasi: stol, kursi, lavh, shamdon, oyna, siyohdon, qalamdon bor, tokchaga kitoblar terilgan, shuningdek shoirning kiyim-kechaklari va boshqa buyumlar qo'yilgan; 4- xona mehmonxona, unda dasturxon, choynak-piyola, patnis, ko'rpacha, naqshli stol, soat va boshqalar bor, devoriga so'zana, dutor osilgan. Muzey eksponatlari 3mingga yaqinni tashkil etadi.[6, https://uz.wikipedia.org/wiki/Avaz_O%CA%BBtar_uy-muzeyi]

Keltirib o'tganimizdek, adabiyot darsliklaridan o'rin olgan ijodkorlarning aksariyati nomiga uy-muzeylar tashkil etilgan va maqbaralar qurilgan. Adabiyot fani o'qituvchilari ular haqida yaqindan tanishib, darslarini mana shu ijodkorlar bilan bog'liq hududlarda olib borsalar qo'yilgan maqsadga yetishlari oson bo'ladi. Masalan, Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti va ijodini o'quvchilarga tushuntirishda Qo'qon shahrining Chorsu ko'chasida joylashgan shoir uy-muzeyida darslar tashkillansa, bolalar o'tgan asrdagi ajdodlarining hayoti, yashash tarzi bilan yaqindan tanishadilar, ular foydalangan buyumlarni o'z ko'zlari bilan ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar va mana shunday iste'dod sohiblari ham oddiy odamlar bo'lganligini, faqat o'qish va izlanish bilan shu darajaga erishganliklarini tushunib yetadilar. O'qituvchilar esa o'quvchilarning butun umr eslarida qoladigan darslarni tashkillagan shaxs sifatida namoyon bo'ladilar. Yoki maktab dasturiga kiritilgan Nodiraning hayoti va ijodi mavzusini bolalarga tushuntirishda ham aynan biz yuqorida keltirib o'tgan "Dahmai Shohon" majmuasiga bolalarni olib kelib, shu yerda mavzui hikoya qilib berilsa, Nodiraning mashaqqatli va ayanchli hayoti haqida ma'lumotlar berilsa, turmush o'rtog'idan erta ajralib, mamlakat boshqaruvida o'g'liga yordam berganligi, Buxoro amiriga qarshi mardlarcha kurashganligi va oxir oqibat ayanchli o'lim topganligi haqida faktlar keltirib o'tilsa, bu yoshlarda Nodiraning hayoti va ijodi haqidagi qimmatli ma'lumotlarni butun umr muhrlanib qolishiga xizmat qiladi. Qabriston chap tarafida joylashgan marmartosh shoiraning ramziy qabri ekanligi, uning tana qismining bir bo'lagi Modarixon maqbarasiga ham qo'yilganligi haqidagi ma'lumotlar shu yerning o'zida bolalarga yetkazilsa, ularning Nodiraga bo'lgan hurmatlari va muhabbatlari yana ham ortishiga xizmat qiladi. Shu bilab birgalikda, haqiqat va adolat uchun kurashganlar hamisha xalq ardog'ida ekanligi yosh avlod ongiga singdiriladi.

Avaz O'tar ijodi bilan tanishtirishda ham o'quvchilarni Xivaning Ichan qal'a yodgorligining bir qismida tashkil etilgan shoir uy-muzeyiga olib borish, u yerdagi to'rt xona va

shoir asarlari hamda foydalangan buyumlari bilan yaqindan tanishtirish dasrlarning qiziqarli va manfaatli bo'lishiga xizmat qiladi.

Xulosa: Bundan ko'rinib turibdiki, bugun Qo'qon va Xiva xonlarining, o'tmish ajdodlarining qabrlarini ziyorat qilish uchun borganlar nafaqat ularni ziyorat qiladilar, balki yuksak hunarmandchilik namunalaridan ham bahramand bo'ladilar. Azaldan hunarmandlar shahri hisoblanmish azim Qo'qonning usta ijodkorlari tomonidan ishlangan asl san'at asarlari bilan tanishadilar. Bu orqali yosh avlodda yuksak vatanparvarlik, faxr-u iftixor, ajdodlarga hurmat va ziyorat odobi ham shakllanishiga erishiladi. Shunday qilib, adabiy turizm nafaqat bilim olishda balki shaxsning barcha jihatlarini rivojlantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu tajribalar orqali yosh avlodning adabiyot va madaniyatga nisbatan qiziqishi ortadi hamda ular kelajakda yanada ma'rifatli shaxslar bo'lishlariga yordam beradi.

Keyingi yillarda prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda turizmni rivojlantirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday ulkan bunyodkorlik ishlari bizning Qo'qon shahrimiz tuprog'ida yotgan shoir va yozuvchilarning, ilm va madaniyat xodimlarining abadiy maskanlarini obod etish bilan davom ettirilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Zero, Qo'qonda qanchadan qancha adabiyot darg'alarining uy muzeylari e'tibor va ta'mir talab holda yotibdi. Shu bilan birga, maktablarga ichki turizm uchun alohida avtobuslar qo'yilsa, nazorat uchun yana bir kishi ajratilsa, o'qituvchilar ham bunday manfaatli ekskursiya darslarni tashkilashda aslo qiyinchiliklarga duch kelmas edilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 173-bet.
2. [https://nrm.uz/contentf?doc=574188_20192025_yillarda_o%E2%80%98zbekiston_respublikasida_turizm_sohasini_rivojlantirish_koncepciyasi_\(o%E2%80%98r_prezidentining_05_01_2019_y_pf-5611-son_farmoniga_1-ilova\)](https://nrm.uz/contentf?doc=574188_20192025_yillarda_o%E2%80%98zbekiston_respublikasida_turizm_sohasini_rivojlantirish_koncepciyasi_(o%E2%80%98r_prezidentining_05_01_2019_y_pf-5611-son_farmoniga_1-ilova))
3. Mirzayev M., Aliyeva. M. Turizm asoslari. Toshkent, 2011.
4. <https://otpusk.uz/uz/uzbekistan/sights/kokand>
5. <https://otpusk.uz/uz/uzbekistan/sights/khiva>
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Avaz_O%CA%BBtar_uy-muzeyi
7. Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 271-276
8. Tursunova, N. (2025). Alisher Navoiy an'alarining Muqimiy ijodidagi takomili. *Hamkor konferensiyalar*, 1(11), 260-263.
9. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(09), 187-191.

ADABIY MEROSNI SAQLASH ORQALI ADABIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH

Melikuziev Umarjon

Qo'qon DU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qoqon shahrining turistik quvvati va shahardagi turistik ob'ektlarning qisqacha tarixi va tahlili haqida ma'lumot berilgan. Adabiy turizmning rivojidadagi imkoniyatlar va Mirzo Hayrullo Xo'qandiy adabiy me'rosining turizm sohasidagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Adabiy turizmni yanada rivojlantirish uchun qilinishi kerak bo'lgan ishlar haqida fikr bildiriladi.

Kalit so'zlar: Turizm, madrasa, adabiy turizm, muzey, Mirzo Xo'qandiy, hattot, arabiy yozuv

Kirish: Markaziy Osiyo tuproqlari qadimdan san'atkorlar va shoirlar yurti va ilm-ma'rifat o'chog'i bo'lib kelgan. Zaminimizdan etishib chiqqan buyuk fikr egalarining bizga qoldirgan ulkan adabiy va ilmiy me'rosining ma'lum bir qismi, garchi turli bosqinlar davrida nobud qilingan, olib ketilgan bo'lsa-da, hozirgi kungacha etib kelganlarining salmog'i ham kishini hayratga soladi. Mazkur noyob xazinalarni ko'z qorachig'idek asrash, saqlash, o'rganish va avlodlarga butunicha